



“O‘ZBEK FOLKLORI VA SHEVALARI TADQIQOTLARI: AMALIYOT, METODOLOGIYA, YANGICHA YONDASHUV”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy
konferensiya materiallari

2026-yil 23-may

*(Professor Samixon Ashirboyev tavalludining
80 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan)*



“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*” mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari
/ Mas’ul muharrir: Sh.Sirojiddinov. – Toshkent, 2026. bet.

Mas’ul muharrir:
Shuhrat Sirojiddinov
filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

Normurodova N.Z. filologiya fanlari doktori, professor;
Jabborov N.A. filologiya fanlari doktori, professor;
Ashirboyev S. filologiya fanlari doktori, professor;
Tilavov A.X. filologiya fanlari nomzodi, dotsent;
Xidraliyeva Z.R. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Aliqulova H.Q. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi;
Turdialiyev A.X. filol. fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;
Alimardanov E.I. filol.fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), kattao‘qituvchi;
Qodirov U.A., katta o‘qituvchi.

Ushbu to‘plamda Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2026-yil 23-mayda o‘tkazilgan **“O‘zbek folklori va shevalari tadqiqotlari: *amaliyot, metodologiya, yangicha yondashuv*”** mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari hamda filologiya fanlari doktori, professor Samixon Ashirboyevning tabarruk yoshi munosabati bilan yo‘llangan tabriklar o‘rin olgan.

To‘plam materiallaridan filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistratura va bakalavriat talabalari, shuningdek, keng o‘quvchilar ommasi foydalanishlari mumkin. Maqolalar sifati, mazmuni va haqiqiyliги uchun muallifning o‘zi javobgar hisoblanadi.



	Nurafshon shahar shevasining ayrim dialektal xususiyatlari	
15	Sadoqat RAJABOVA, Ishtixonda yashovchi etnik arablar	246
16	Umarjon QODIROV, Shonazar Shoabdurahmonov – lingvofolkloristika asoschilaridan	249
17	Gulchexra AHATOVA, Toyloq shevasidagi iboralar va ularning ingvomadaniy tahlili	253
18	Hayotxon SOTIMOVA, Xorazm o‘zbek shevalarida oila konseptining urf-odat va marosimlardagi lingvomadaniy ifodasi	260
19	Ramazon ORTIQOV, “Ikkilamchi nominatsiya” tushunchasining ilmiy adabiyotlardagi talqini	264

3-SHO‘BA. DIALEKTAL LEKSIKOGRAFIYA, DIALEKTAL KORPUS, TOPONIMIYA VA LINGVOKULTUROLOGIYA

1	Hamidulla DADABOYEV, XI–XII asr turkiy til tibbiy terminologiyasi tizimining “devonu lug‘otit turk”da aks etishi 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/PTYD5470	271
2	Nishonboy HUSANOV, “Lug‘ati chig‘atoyi va turkiy” – o‘zbek shevalarini o‘rganishda muhim tarixiy manba 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MAKE1648	276
3	Baxtiyor MENGLIYEV, Dilrabo ELOVA Lingvo-mantiqiy ekspertiza: yuridik lingvistikada integrativ yondashuv masalasi	281
5	Muhayyo HAKIMOVA, Milliy tafakkurning abstrkat leksika shakllanishiga ta’siri 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/MBYM8287	284
6	Nilufar ABDURAXMONOVA, Nasima ABDULLAYEVA, Dialektal birliklarning raqamli korpus modelini yaratish masalalari 10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/TYZS7723	292
7	Zamira DJURABAYEVA, Fitonimlarning dialektal tabiati haqida ba’zi mulohazalar	297
8	Muyassar XOLOVA, Dialektal korpusda olmosh so‘z turkumining teglanishi	300
9	Anvarbek TURDIALIYEV, Ma’lumotlar bazasini shakllantirish va qidiruv tizimiga joylashtirish masalalari	304
10	Gulxayo ISABAYEVA, Sardor JO‘RAQULOV Tog‘ay Murod nasrida dialektizmning o‘rni (Otamdan qolgan dalalar romani misolida)	313
11	Feruza AMINOVA, Badiiy matnda nurota shevasiga xos morfologik shakllarning qo‘llanishi va uslubiy vazifasi	316
12	Oynisa XOJIYEVA, O‘zbek va turk tillarida paremiologik birliklarning struktur-semantik va funktsional munosabati	320
13	Dildora AMIROVA, “Bobur” antroponimining badiiy matnlarda allyuziv nom sifatida qo‘llanilishi	325
14	Kamola NOSIROVA, Dialectological features and lexical layer of alla texts in tashkent region	328

“BOBUR” ANTROPONIMINING BADIY MATNLARDA ALLYUZIV NOM SIFATIDA QO‘LLANILISHI

THE USE OF THE ANTHROPONYM BOBUR AS AN ALLUSIVE NAME IN LITERARY TEXTS

Dildora AMIROVA,
GulDPI o'qituvchi

10.52773/tsuull.conf.2026.23.05/CIYI5335

Annotation. *This article examines the features of using the anthroponym Zahiriddin Muhammad Babur as an allusive name in literary texts. During the study, the linguopoetic possibilities of the name “Babur”, its semantic load, and its role in creating intertextual content are analyzed. Also, through this anthroponym, the artistic expression of such concepts as courage, patriotism, enlightenment, longing and spiritual resilience is highlighted. The article reveals the connection between the name “Babur” and historical and cultural memory, as well as its significance in forming associative meaning in the reader's mind based on examples. As a result of the research, it is based on the fact that the anthroponym “Babur” is not only a nominative unit in the literary text, but also an allusive tool with a strong aesthetic and pragmatic effect.*

Key words: *allusion, allusive name, anthroponym, literary text, linguopoetics, intertextuality, Babur.*

Badiiy adabiyot tilining ta'sirchanligi va estetik qimmatini ko'p jihatdan unda qo'llanilgan til birliklarining ma'no qatlamlari bilan belgilanadi. Ayniqsa, yozuvchi yoki shoir tomonidan qo'llanadigan ishora, ramz va yashirin ma'nolar matnning badiiy-estetik kuchini oshiradi. Shu jihatdan allyuziya hodisasi va uning tarkibiy ko'rinishlaridan biri bo'lgan allyuziv nomlar badiiy matn poetikasida muhim o'rin tutadi. Allyuziv nomlar orqali muallif tarixiy voqealar, mashhur shaxslar, mifologik obrazlar, diniy tushunchalar yoki avval yaratilgan adabiy asarlarga ishora qiladi hamda o'quvchi tafakkurida qo'shimcha assotsiativ ma'nolarni uyg'otadi.

Badiiy matnda qo'llangan allyuziv nomlar nafaqat nominativ vazifani bajaradi, balki matnning semantik va pragmatik qatlamini boyitadi. Bunday nomlar vositasida muallif qahramon xarakterini ochib beradi, muayyan davr ruhiyatini ifodalaydi yoki ijtimoiy-falsafiy munosabatni bilvosita tarzda yoritadi. Shu sababli allyuziv nomlarni o'rganish zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Tilshunos olimi Durdona Xudoyberganova allyuziv nomga shunday ta'rif beradi: “Allyuziv nom – allyuziv matnda allyuziya ko'rsatkichi vazifasida keluvchi onomastik birlik, assotsiativ tarzda idrok qilinuvchi pretsedent matnning tarkibiy qismi; ikki madaniy-semiotik maydonni tutashtiruvchi vosita” [Xudoyberganova, 2024:9]. Shuni ta'kidlash lozimki, allyuziv nomlarga duch kelar ekanmiz, ular bilan bog'liq ma'lumotlar ko'z oldimizda qaytadan jonlanadi. Allyuziv nomlar qaysi ijodkor asarida qo'llanilmasin uning badiiy-estetik salohiyati va poetik mahoratidan dalolat beradi. Allyuziv nomlar vositasida xoh katta, xoh kichik axborot ixcham ko'rinish bilan namoyon bo'ladi. Ko'pchilik uchun ma'lum bo'lgan axborotlarning qaytadan kiritilishiga hojat qolmaydi [Amirova, 2024:357].

Ijodkorning muayyan allyuziv nomga murojaat qilishi uning dunyoqarashi, nomlar haqidagi bilimi bilan bog'liq bo'ladi [Andaniyazova, 2016:53]. Shu jihatdan olib qaralganda Bobur antroponimining badiiy matnlarda allyuziv nom sifatida qo'llanilishi o'quvchi(kitobxon) tasavvurida uning tarixiy shaxs, ijodkor, sarkarda va ma'naviy timsol sifatidagi ko'p qatlamli

semantik imkoniyatlar tarzida gavdalanishiga yordam beradi. Mazkur xususiyatlarni quyida bir qancha badiiy matnlardan olingan parchalar orqali tahlil qilamiz.

*O'zing qayerda bo'lsangam, bir ko'ngling yurtingda bo'lsin!.. Bilaman, Amerikada imkonlari katta. O'qi, o'rgan, ishla, pul top, biroq bu yerlardan ko'ngil uzma! **Bobur**dek zot, kimsan – shoh hazratlari bir qovuniga zor bo'lgan yurtni unutib qo'yma* [Hamdam, 2024:387]!

Muallif ushbu misol orqali murojaat qilinayotgan kishiga Bobur misolida: qayerda bo'lma, hatto imkoniyatlar katta bo'lsa ham, yurtingni unutma, degan g'oyani kuchaytiradi. Allyuziv nom (Bobur)ni yurtga sadoqatni eslatuvchi ibratli obraz ma'nosida ifodalaydi. Shuningdek, Bobur va qovun haqidagi rivoyatga ishora berish orqali allyuziv nomning ta'sirchanlik xususiyatini yanayam oshiradi.

Vatan desam, tilimga

*Temur-u **Bobur** kelar.*

Moziylarni uyg'otib

Do'mbira, tanbur kelar [Hamdam, 2018:50]!

Bu misralar orqali shoir o'zbek milliy ruhini juda kuchli ifodalaydi. Unda "Vatan" deyilganda, tilga darhol buyuk tarixiy siymolar – Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Bobur kelishi bejiz emas. Bu orqali muallif yurtning shonli o'tmishini, buyuk ajdodlar merosini esga soladi. Ular orqali go'yo ajdodlar ovozi yangrayotgandek tasavvur uyg'otadi.

Yurt nedir, yurt dog'i nedir,

Yurtdan ayrilgan bilar.

Anglaguvchi yurt firoqin

Yurtda topilmas kishi.

Ey vatandoshim, eshit

***Bobur**-u Furqat nolasin,*

Besabab anduh tig'ida

Bag'rini tilmas kishi [Vohidov, 2001:134-135].

Bu yerda Bobur yurtdan ayrilish dardini chuqur his qilgan inson timsolida gavdalanadi. Ma'lumki, Bobur umrining katta qismini vatandan yiroqda o'tkazgan va o'z asarlarida, xususan "Boburnoma"da vatan sog'inchi, iztirobini ko'p bora ifodalagan. Shu sababli she'rda uning nomi vatan hijroni azobini boshdan kechirgan shaxs, yurt qadrini anglagan inson, dardli nola egasi sifatida umumlashtirilib berilgan. Shuningdek, Bobur bilan bir qatorda Zokirjon Xolmuhammad o'g'li Furqat ham tilga olinib, ikkalasi ham vatan dardi, hijron iztirobining badiiy ramziga aylantirilgan.

Tunlar qulog'imga chalinar elas,

Tulporlar kishnashi, otlar gurrosi.

Balki Muqanna bu – tinib-tinchimas,

*Balki Panipatda **Bobur** urhosi* [Oripov, 2018:8].

Mazkur she'rda "Bobur" antroponimi tarixiy voqea va jangovar ruh ramzi sifatida qo'llangan. Muqanna va Bobur nomlari o'tmishdagi buyuk janglarning aks-sadosi, harbiy qudrat va jasorat timsoli sifatida ishlatilgan.

***Mirzo Bobur** – sen, fig'oning*

Soldi olam uzra o't,

Shoh Mashrab qoni senda

Urdu tug'yon, o'zbekim [Vohidov, 2001:106].

Ushbu badiiy matnda "Mirzo Bobur" antroponimi bevosita tarixiy shaxs nomi sifatida emas, balki milliy ruh va ichki iztirob ramzi sifatida qo'llangan. Bobur nomi Mashrab bilan umumlashib, o'zbek xalqining ruhiy merosi – dard, isyon, jo'shqinlik va ma'naviy kuchni ifodalaydi.

Biz shunday o'tamiz,

*Ya'ni kun ko'rib...
Maydagina kuchsiz, maydagina zo'r.
Hayotning mana shu burjidan turib,
Men Sizni o'yladim, hazrati **Bobur**.
...Ayting, ne topdingiz Siz kezib dunyo,
Hanuz boqisharlar sho'rishga to'lib.
Shoirsiz, yaxshisi, qolingiz, **Mirzo**,
Mushfiq yurtigizda bir shoir bo'lib [Oripov, 2018:51-52].*

Mazlur parchada “Bobur Mirzo” antroponimi tarixiy shaxs nomi bilan birga chuqur falsafiy va ramziy ma’noda qo’llanilgan. Vatanidan uzoqda yashashning achchiq haqiqatini bilgan Bobur shaxsini hayotdan ma’no izlovchi inson obrazi sifatida gavdalanirilgan.

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, “Bobur” antroponimi badiiy matnlarda asosan jasorat, vatanparvarlik, ma’rifatparvarlik, ruhiy matonat, ijodkorlik va sog’inch timsoli sifatida namoyon bo’ladi. Mualliflar mazkur nom orqali tarixiy shaxs obraziga ishora qilish bilan birga, qahramonning ichki dunyosi, ma’naviy qiyofasi va ruhiy kechinmalarini ham chuqurroq ochib beradilar. Natijada allyuziv nom matnning emotsional-ekspressiv ta’sirchanligini oshiradi hamda o’quvchining tafakkurida qo’shimcha semantik qatlamlarni yuzaga keltiradi. Shuningdek, “Bobur” antroponimining allyuziv qo’llanilishi intertekstual aloqalarni shakllantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu nom orqali tarixiy manbalar, mumtoz adabiyot va milliy madaniy xotira bilan uzviy bog’liqlik yuzaga chiqadi. Bu esa badiiy matnning mazmun doirasini kengaytirib, uning poetik qiymatini yanada kuchaytiradi. “Bobur” antroponimi badiiy matnlarda oddiy atoqli ot vazifasidan tashqari, chuqur ramziy va lingvopoetik ma’no yuklovchi allyuziv nom sifatida faol qo’llaniladi. Uning bunday funksional imkoniyatlari o’zbek badiiy nutqining obrazlilik darajasini oshirishda hamda milliy madaniy qadriyatlarni ifodalashda muhim vosita bo’lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amirova D. Badiiy matnda allyuziv nomlar (Ulug’bek Hamdamning “Yo’l” romani misolida) // “Raqamlashtirish davrida o’zbek tilini davlat tili va xorijiy til sifatida o’qitish masalalari: mahalliy va xorijiy tajriba” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to’plami. – Toshkent, 2024.
2. Andaniyazova D. Onomastik birliklarning lingvopoetik tadqiqi. – Toshkent: Turon zamin ziyo, 2016.
3. Hamdam U. Eski dunyo va yangi men: saylanma. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
4. Hamdam U. To’rtko’cha: roman. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2024.
5. Oripov A. Saylanma. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2018.
6. Vohidov E. Saylanma. 1-jild. Ishq savdosi. – Toshkent: Sharq, 2001.
7. Vohidov E. Saylanma. 3-jild. Umrin daryosi. – Toshkent: Sharq, 2001.
8. Xudoyberganova D. Zamonaviy tilshunoslik terminlarining izohli lug’ati. – Toshkent: Bookmany print, 2024.

